

BRONXODOKS

PREPARATINI QOLLASH BO'YICHA YORIQNOMA

TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI

Tabiiy o'simliklar ekstraktidan tarkib topgan, o'ziga xos hidga ega, jigarrang tusdagi (biroz cho'kma va xira ko'rinish bo'lishi mumkin), suyuq qiyom bo'lib, himoyalovchi plombali 100 ml hajmdagi asl flakonlarda qadoqlangan: (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o'ramlar, (2) – me'yorlash qoshig'i – dozator, (3) – qo'llash bo'yicha yo'riqnoma.

	100 ml.
Mavrak ekstrakti (<i>Salvia officinalis</i> L.)	10mg.
Qizilmiya ekstrakti (<i>Glycyrrhiza glabra</i> L.)	10mg.
Tuyatovon ekstrakti (<i>Tussilago</i> L.)	10mg.
Aloe ekstrakti (<i>Aloe arborescens</i> Mill.)	5 mg.
Zubtutum ekstrakti (<i>Plantago</i> L.)	5 mg.

Yordamchi moddalar: 100 ml.gacha tozalangan suv, shakar kukuni, 95 % li etil spirti

PREPARATNING TA'SIRI

Bronxodoks – yo'talga qarshi va bronxlarni kengaytiruvchi xususiyatga ega bo'lgan kombinatsiyali preparat. Nafas olishga to'sqinlik qilmagan holda yo'talni susaytiradi. Sust bronxospazmolitik va sekretolitik xususiyatga ega. Bronxlarni kengaytiradi, shilliq qobiqning shishini kamaytiradi va nafas olishni osonlashtiradi. Yallig'lanishga va mikroblarga qarshi susaytiruvchi ta'sirga ham ega.

QO'LLANILISHI

Bronxodoks quyidagi kasalliklar kompleks terapiyasida qo'llaniladi:

- o'tkir va surunkali bronxit;
- traxeobronxit;
- bronxial astma;
- bronxoektatik kasalliklar;
- bronxial apparatni qayta o'rnatishdagi jarrohlikdan oldin va keyingi davr;
- bronxlarning shilliq probka bilan to'silib qolishidagi atelaktaz;
- pnevmoniya;
- ko'kyo'tal;
- tuberkulyoz;
- yo'tal va bronx yo'llari kasalliklari alomatlarini bartaraf etish.

QO'LLASH MUMKIN BO'LMAGAN HOLATLAR

Preparatning ba'zi tarkibiy qismlariga yakka tarzda chidamsizlik.

Giperatsid gastrit. Homiladorlik. Laktatsiya davri.

QO'LLASH USULI VA DOZALARI

Yakka tarzda belgilinadi:

KATTALARGA	6 YOSHDAN KATTA BOLALARGA
5,0-10,0 ml.dan kuniga 4 mahal	2,5-5,0 ml.dan kuniga 3 mahal

Davolanish davomiyligi 14 kun.

MAXSUS KO‘RSATMA

Preparatni qabul qilishdan oldin, chayqating.

NOJO‘YA TA‘SIRI

Preparatning ba‘zi tarkibiy qismlariga organizm ta‘sirchanligi yuqori bo‘lgan holatlarda, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

PREPARATNING ME‘YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Bronxodoks preparatining me‘yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo‘ladigan noxush holatlar haqida xabar qilinmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O‘ZARO TA‘SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo‘llanilganda nojo‘ya ta‘siri kuzatilmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2°S dan +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz